



TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISHDA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION JIHLTLARI

Qodirov Javohir

Qozon federal universiteti Jizzax filiali

ORCID: 0009-0005-3241-2223

javohir2858@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion jihatlari, uni rivojlantirish va baholash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'rganilgan. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlashtirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, innovatsion-ta'lim tarmog'i, innovatsion fikrlash, ta'lim jarayoni, mehnat bozorini tartibga solish.

ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ОКАЗАНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

Кодиров Джавахир

Джизакский филиал Казанского федерального университета

Аннотация. В статье рассматриваются инновационные аспекты развития системы образования в сфере предоставления образовательных услуг, социально-экономические отношения, возникающие в процессе её развития и оценки. Исследованы практические рекомендации и предложения по научно-методическим основам выяснения факторов повышения конкурентоспособности организаций высшего образования на рынке образовательных услуг, совершенствования методологии оценки их конкурентоспособности, усиления интеграции образования, науки и производства, повышения качества образовательных услуг.

Ключевые слова: образовательные услуги, инновационно-образовательная сеть, инновационное мышление, образовательный процесс, регулирование рынка труда.

INNOVATIVE ASPECTS OF DEVELOPING THE EDUCATION SYSTEM IN THE PROVISION OF EDUCATIONAL SERVICES

Qodirov Javohir

Jizzakh Branch of Kazan Federal University

Abstract. *The article studies the innovative aspects of the development of the education system in the provision of educational services, the socio-economic relations that arise in the process of its development and evaluation. Practical recommendations and proposals are studied on the scientific and methodological foundations of clarifying the factors for increasing the competitiveness of higher educational institutions in the educational services market, improving the methodology for assessing their competitiveness, strengthening the integration of education, science and production, and improving the quality of educational services.*

Keywords: *educational services, innovative-educational network, innovative thinking, educational process, labor market regulation.*

Kirish.

Jahonda glaballashuvning kuchayib borishi sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning bosh omili sifatida ta'lim bozorida innovatsion yondashuv va hududiy innovatsion-ta'lim tarmog'ini rivojlantirish samaradorligini oshirishning ahamiyati oshib bormoqda. Xalqaro universitetlar reytingi bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra, "Hozirgi vaqtda xalqaro ta'lim xizmatlari bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollaridan ko'proqni tashkil etib, shundan 50-70 mlrd. AQSh dollari oliy ta'lim muassasalari hissasiga to'g'ri kelmoqda" (unipage.net, n.d.). Zamonaviy sharoitlarda innovatsion-ta'lim tarmog'ini rivojlantirish asosida ta'lim sifati va ta'lim muassasalari reytingini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini taminlash dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy maqsadlaridan biri ustuvor strategik yo'nalishlarni tanlab olishdan iborat. Bunda uzluksiz ravishda davom etadigan ilmiy tadqiqotlarning samarali natijalarini amaliyotga joriy qilish faoliyatini o'z ichiga olgan milliy innovatsion tizimni yaratish iqtisodiyotning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida innovatsion-ta'lim tarmog'ini rivojlantirish va ta'lim sifati raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan mexanizmlar va vositalarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion tizimini yaratish, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada yuqori malakali mutxassis kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining innovatsion tizimini yo'lga qo'yish, milliy innovatsion tizimning raqobatbardoshligini baholash uslubiyati va innovatsion rivojlanish mexanizmini takomillashtirish kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

"Innovatsiya" atamasi Shumpeter (1982) tomonidan 1912 yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida taklif etilgan. Innovatsion nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to'la asoslab berilgan. U innovatsiya deb ishlab chiqarish sohasida qo'llangan yangilik va u bilan bog'liq barcha o'zgarishlarni tushungan. Uning fikricha, innovatsiya foyda olishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlash, rivojlanishni yanada tezlashtirish manbasidir.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozoriga oliy ta'lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashda asosiy e'tibor oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni yangi bosqichga ko'tarishda kreativ fikrlaydigan raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlanganidek, "Kadrlar

malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu tizim 9 mingga yaqin kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmiy bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart (Murojaatnoma, 2020).

Professor Nazarovning (2010) e'tirof etishicha: "Innovatsiya - bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida inson o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangiliklarni (yangi amaliy vositani) yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayoni" deb ifodalanadi. esa innovatsiya (yangilik kiritish) ni amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi tizim" sifatida ta'riflaydi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash, "fan - ta'lim - ishlab chiqarish" integrasiyasini yangi pog'onaga kuchaytirish, ilmiy faoliyati samaradorligiga erishish, raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha dasturiy tadbirlar amalga oshirilmogda. "...Avvalo ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyani taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" (review.uz, 2020).

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani yoritishda mantiqiy va taqqoslash tahlili, tadqiqotni o'rganishga tizimli yondashuv, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ta'lim xizmatlari bozorida hududiy innovatsion-ta'lim tarmog'ini rivojlantirish samaradorligini oshirish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun bugun nafaqat salohiyatli ilm-fan, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish, balki institutsional sharoitlarning butun bir majmuasi mavjud bo'lishi talab etilmogda.

Shu o'rinda innovatsiyaning nazariy mohiyatiga e'tibor qaratsak, mazkur tushuncha foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek «Eng muhim vazifa - xalqda innovatsion fikrlashni shakllantirish. Innovatsiyalar yo'q joyda rivojlanish va raqobat ham bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz» (gazeta.uz, n.d.).

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalaridan faol foydalanish bilan bog'liq va birinchi navbatda ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Shu munosabat bilan talabalarning kasbiy innovatsion faoliyati tubdan boshqacha ma'no kasb etadi. Innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, talabalar uchun ta'lim sohasidagi har qanday yangilik o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgandagini yuzaga chiqadi. Demak, ta'lim jarayonida talabalarni ob'ektdan sub'ektga aylantirish, birinchi navbatda, o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bog'liqdir.

Shuni alohida takidlash lozimki, mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni shiddat bilan rivojlanishi natijasida innovatsion infratuzilmaga ehtiyoj sezildi. Innovatsion infratuzilma bu innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmuidir. Ayni paytda, barcha sohalar kabi ta'lim sohasida

ham innovatsion infratuzilma shakllantirildi. Mazkur infratuzilmani shakllanganligini bevosita ta'lim turlaridagi o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin.

"Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlanishi va mehnat bozori bilan o'zaro bog'liqligi nafaqat u oliy ta'limga ega bo'lgan mutaxassislarga to'lanadigan ish xaqiga balki ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan ishlab chiqarish infratuzilmalariga, ularni kelajakda mansab darajalarida rivojlanishi kafolatlanishiga hamda mehnat qilish uchun zarur muhit sharoitlarni borligiga bog'liq. Zoxidovanning (2012) fikricha "ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlari aloqalari tizimining ajralmas qismlari hisoblanadi".

Jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lim oluvchilarda kelajakni rejalashtirish qobiliyati, kelajak uchun javobgarlik hissi, o'ziga va o'z kasbiy qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishga qodir bo'lgan yangi ta'lim tizimi – "innovatsion ta'lim"ni talab qilayapti. Hozirda respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'laqonli foydalanish, innovatsiyalarni iqtisodiyotgagina emas, balki ta'limning barcha turlarida ham samarali joriy etish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. An'anaviy kasblar tarkibida, yoshlarning kasb tanlashida qadriyatlar va mo'ljallar tizimi hamda mehnatni tatbiq etish sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bularning barchasi mutaxassislarning yangicha tipi – innovatsion fikrlash uslubiga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar paydo bo'lganini tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi.

Ta'lim tizimining modernizatsiyalashda quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqqligini ta'minlash ;
- uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish;
- yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;
- davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari –talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirish.

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishda quyidagi bosqichlardan iborat vazifalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1-bosqich. Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida belgilangan strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda OTM missiyasi va uzoq muddatli maqsadlarni belgilab olish. Bunda, mehnat bozori talablari doirasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi lozim.

2-bosqich. Belgilangan missiya va uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi faoliyatni tashkil etish modelini tanlash. Bunda, OTMning tarixiy an'analari, uning ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy resurslarni ob'ektiv baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3-bosqich. Belgilangan missiya va uzoq muddatli maqsadlarni qo'shimcha moliyaviy qo'yilmalar, tashkiliy o'zgarishlarni talab etmagan holda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi boshqaruv tuzilmasi tashkil qilinadi.

4-bosqich. OTM boshqaruv tizimining samarali faoliyatini tashkil etish uchun gorizontol, vertikal hamda teskari aloqa mexanizmlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi ishlab chiqiladi.



**Oliy ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini tartibga solish mexanizmini
amalga oshirish bosqichlari**

№	Bosqichni amalga oshirish ketma-ketligi	Bosqichni amalga oshirish vazifalari
1.	Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlarini tashqi siyosiy va iqtisodiy, ichki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar asosida o'zgarib turishi davri	Mehnat bozori va ta'lim xizmatlari tizimi bozorini oliy malakali mutaxassislarga bo'lgan talab va taklifni muvofiqlashtirishning usullaridan biri ularga bo'lgan talabni istiqbolashtirish
2.	Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida o'quv jarayonini tashkil etish	Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, o'quv uslubiy va ilmiy-innovatsion tadbirlarni ishlab chiqish asosida amalga oshirishni boshqarish
3.	Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish	Oliy malakali kadrlarga bo'lgan talabni ta'minlash va ishlab chiqarish korxonalariga, xizmat ko'rsatish sohasiga talab darajasida oliy malakali mutaxassislarni yetishtirish masalalari mehnat bozori bilan o'zaro bog'liqlikda hal etilishiga erishish
4.	OTM xizmatlari bozorining faoliyatini iqtisodiy mintaqalar va mehnat bozori talablari asosida amalga oshirish	Oliy ta'lim xizmatlari tizimi va bozorini faoliyatini doimiy ravishda iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va uni rivojlantirish uchun tegishli qarorlarni qabul qilish. Mehnat va oliy ta'lim bozorini tartibga solishni amalga oshirish uchun bu sub'ektlarni o'zaro bog'liqlikda bir-biriga bog'liq va bir-biriga ta'sir etuvchi umumlashgan ya'ni yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tariqasida boshqarish

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy o'quv yurtlari uchun milliy iqtisodiyotga zarur bo'lgan oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan darajada kadrlar tayyorlashni ob'ektiv shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda davlat tomonidan belgilab berilishi zarur bo'lsa, kontrakt to'lovlari asosida esa oliy ta'lim tizimidagi oliy o'quv yurtlariga qabul qilish kvotasini shakllantirish darajasi ular tomonidan belgilanishi zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Oliy ta'lim tizimida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarining kontrakt to'lovi asosida qabul kvotalarini tayyorlashda ichki vaziyatlardan ya'ni qabul qilingan abituriyentlarni o'qitish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlardan kelib chiqishlari kerak.

Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ta'lim sohasini isloh qilishna qaratilgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini keng ommaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish;
- bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot tashkil etilishini nazarda tutgan holda, barcha sohalarni rivojlantirishda innovatsion faoliyatga urg'u berish;
- innovatsion infratuzilmaning sub'ektlari innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi kabilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni jadal rivojlanishini ta'minlash;
- ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, innovatsion faoliyatning sifati va samaradorligi ta'minlash chora-tadbirlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratish.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Gazeta.uz (2017) Innovatsiya haqida maqola. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2017/12/04/innovatsiya/>

Nazarova, R.R. (2010) 'К проблеме развития инновационной деятельности в экономике Узбекистана', *Общественные науки Узбекистан*, (1–2), p.30.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) Oliy Majlisga murojaatnoma, "Xalq so'zi" gazetasi, 25 yanvar. Available at: <http://www.press-servise.uz>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev (2020) Oliy Majlisga murojaatnoma, 30 dekabr. Available at: <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

Schumpeter, J. (1982) *Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi: Tadbirkorlik foydasi, kapital, kredit, foiz va kon'yunktura sikli tadqiqi*. Moskva: Progress. (Asl nashr: *Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung*, 1912).

Unipage.net (n.d.) Universities ranking. Available at: https://www.unipage.net/ru/universities_ranking

Zaxidova, Sh.Sh. (2012) *Oliy ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O'zbekiston materiallari asosida)*. Diss. avtoref. Toshkent, p.27.

